



YOZMA TARJIMADA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJMASI

To'laganov Husniddin Mengaliyevich

Termiz Davlat Universiteti

Khusniddinbek7703@gmail.com

Ravshanov Ulug'bek Ravshan og'li

Termiz Davlat Universiteti

ravshanovulugbek771@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga matnni tarjima qilishdagi frazeologik birikmalarni tarjima qilish usullari haqida. Shuningdek bunday matnni qanday tarjima qilish haqidadir. Ushbu maqolada shuningdek frazeologik birikmalarga misollar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: publitsistika, ilmiy adabiyotlar, badiiy adabiyot, frazeologiya, fraeologik bitimlar, transformatsiya.

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatda ishlatilayotgan judayam ko'plab iboralarni ko'rishimiz mumkin. Biz ularni frazeologik birikmalar deb ham ataymiz. Frazeologik birikmalarning hayotimizda tutgan o'rnini haqida quyidagi maqolada yoritib beriladi. Shuningdek biz har



kuni ishlatadigan frazeologik birikmalar ingliz tiliga qanday tarjima qilinishi yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga qanday tarjima qilish haqida aytib o'tiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda har kungi ishlatiladigan frazalarni qanday tarjima qilish kerakligi va bularning foydasi yoritib beriladi hamda qanday transformatsiyalardan foydalanish ham keltiriladi.

Leksik transformatsiya: ushbu transformatsiya so'zni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarining umumiy nomi.

MUHOKAMA

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarining umumiy nomi. Frazemalar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik



tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda soʻzlarni erkin tanlash, almashtirish yoʻli bilan yuzaga kelmaydi, balki maʼno va muayyan leksikgrammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qullanadi, yaʼni F. tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urugʻi, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sigʻmay ketmoq, kapalagi uchmoq, kungli joyiga tushmoq, qoʻli ochiq, qulogʻi ogʻir va boshqa F.lar tarixiy qoʻllanish meʼyorlariga, usullariga ega boʻlib, ularning maʼnolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazemalarning quyidagi turlari farklanadi: frazeologik chatishma — frazemaning maʼnosi uning tarkibidagi soʻzlarning maʼnosiga bogʻliq boʻlmaydi, frazemadan anglashilgan koʻchma maʼno uning tarkibidagi soʻzlarning maʼnosi bilan izohlanmaydi: toʻnini teskari kiymoq, oyogʻini qoʻliga olib chopmoq, boshini olib chiqib ketmoq va boshqa; frazeologik butunlik (birlashma) — frazemaning maʼnosi uning tarkibidagi suzlarning maʼnolari asosida izoxlanadi, shu maʼnolar asosida umumlashtiruvchi koʻchma maʼno ifoda qilinadi (koʻpincha bunday birlashmalarning oʻz maʼnosida qullanadigan variantlari ham mavjud buladi): yogʻ tushsa yalagudek, yeng shimarmoq, xamirdan qil sugʻurgandek, toʻydan oldin nogʻora chalmoq va boshqa; frazeologik qushilma — bunda frazemalar tarkibidagi bir suz koʻchma maʼnoda qoʻllanadi, boshqasi esa oʻz lugʻaviy maʼnosini saqlaydi: gapning tuzi, qoʻli gul, ishtax,asi ochildi va boshqa.

Badiiy tarjimada frazeologiyani aks ettirishni quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Asliyat frazeologiyasini tarjima tilidagi ekvivalentlari bilan almashtirish.
2. Asliyat tili frazeologiyasini tarjima tilidagi muqobil variantlar bilan oʻgirish
3. Asliyat tilining frazeologiyasini aynan tarjima qilish (bular frazeologik iboralarni tarjima qilishning umumiy yoʻlidir).

Frazeologik birliklar sintaktik tuzilishiga koʻra 2 ga boʻlinadi: birikmaga teng frazemalar (katta ogʻiz, ammamning buzogʻi, tuyogʻini shiqillatmoq) va gapga teng



frazemalar (yuzi yorug' bo'ldi, boshi osmonga yetdi, sirkasi suv ko'tarmaydi). Frazeologik birikmalarning qismlari ajralmas holda bo'lganligi uchun, frazema. gapda bitta sintaktik vazifada keladi.

Biz quyidagi frazeologik birikmalar ya'ni iboralarni o'zbek tiliga qanday tarjima qilishni ko'rib chiqamiz:

A piece of cake - xamirdan qil sug'urgandek ya'ni oson ma'nosida kelyapti

To kick the bucket – o'lmoq ma'nosida kelyapti

Greek gift – yomon ishlari uchun berilgan sovg'a

Drink till all's blue ko'zi ko'rmay qolguncha ichish

Dutch courage – ichib she'rdek bo'lib olish

Drunk as a fiddle- judayam ko'p ichmoq

As mad as a hatter – aqldan ozgan

Many moons ago – uzoq vaqt oldin

Once in a blue moon – kamdan-kam

When pigs fly- hech qachon

Over the moon – judayam xursand

Brush up – o'z ustida ishlash

Yuqorida berilgan frazeologik birikmalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'plab muammolarga duch keldik. Masalan, a piece of cake xamirdan qil sug'urgandek dedik. Agar buni so'zma-so'z tarjima qilsak ma'nosi tortning bir bo'lagi ma'nosini beradi lekin bu ibora emas. Idiomalarni ya'ni frazeologik birikmalarni tarjima qilishda leksik



transformatsiyadan foydalanamiz. Leksik transformatsiya:ushbu transformatsiya so`zni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi.

XULOSA

Frazeologik birikmalar hayotimizda katta rol o`ynaydi chunki bir so`zni oddiy qilib yetkazib bergandan ko`ra bo`yoqdor qilib yetkazib bergan yaxshiroq. Iboralar hayotimizda juda ko`p qo`llanilganligi uchun uni ingliz tiliga tarjima qilishda ham bir qancha muammolarga duch keldik va bularning yechimini yuqorida ko`rib o`tdik. Bir so`z bilan aytganda, hamma tillarda ham frazeologik birikmalar til boyligi bo`lib xizmat qiladi. Va shuning uchun nutqimizni boyitishda ahamiyati katta. Shuning uchun frazeologik birikmalar tarjimonlik sohasida katta rol o`ynaydi.

REFERENCES:

1. Urinova Tursunoy Urin qizi. (2021) Translation problems of set expressions related businessmen speech Международной научно- практической конференции «Молодой учёный: вызовы и перспективы» стр. 120-124
2. Saydullayeva Malika Sayidmurod qizi. (2023) THE STYLISTIC DEVICES IN TRANSLATING ROBERT M. DRAKE'S "BEAUTIFUL AND DAMNED" WORK FROM ENGLISH TO UZBEK pp. 83-85
3. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022): 140-144
4. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI''ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI



INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV
TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3),
176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>